

PENSIYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING AMALIY TAHLILI

Rajabov Nuriddin Ravshanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0002-2269-7315
nrrajabov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada "Pensiya tizimini moliyalashtirishning amaliy tahlili" tushunchasining mazmuni va ahamiyati, pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari, pensiya jamg'armasining moliyaviy manbalari, pensiya jamg'armasiga ta'sir etuvchi demografik, iqtisodiy, ijtimoiy omillar, davlat pensiya ta'minoti, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti, xususiy pensiya ta'minoti, taqsimlanuvchi va aralash pensiya modellari tahlili amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: pensiya, daromad, xarajat, demografiya, ijtimoiy himoya, iqtisodiy omil, demografik omil, ijtimoiy omil, davlat pensiya ta'minoti, xususiy pensiya, jamg'ariladigan pensiya, milliy pensiya tizimi.

ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЫ

Ражабов Нуриддин Равшанович
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье анализируются содержание и значение понятия «Практический анализ финансирования пенсионной системы», доходы и расходы пенсионного фонда, источники финансирования пенсионного фонда, демографические, экономические, социальные факторы, влияющие на пенсионный фонд, государственное пенсионное обеспечение, накопительное пенсионное обеспечение, негосударственное пенсионное обеспечение, распределенная и смешанная модели пенсионного обеспечения.

Ключевые слова: пенсия, доходы, расходы, демография, социальная защита, экономический фактор, демографический фактор, социальный фактор, государственное пенсионное обеспечение, негосударственное пенсионное обеспечение, накопительная пенсия, национальная пенсионная система.

PRACTICAL ANALYSIS OF FINANCING THE PENSION SYSTEM

Rajabov Nuriddin Ravshanovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. The article analyzes the content and significance of the concept of "Practical analysis of pension system financing", income and expenses of the pension fund, financial sources of the pension fund, demographic, economic, social factors affecting the pension fund, state pension provision, funded pension provision, private pension provision, distributed and mixed pension models.

Keywords: pension, income, expenses, demography, social protection, economic factor, demographic factor, social factor, state pension provision, private pension, funded pension, national pension system.

Kirish.

Xozirgi kunda jahoning ko'pgina davlatlarida pensiya jamg'armasining daromadlari xarajatlarini qoplolmaslik holatlari kuzatilmoxda. Mazkur holatlarni mamlakatimizda yuz berishini oldini olish uchun bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bundan tashqari pensiya va nafaqalar miqdorini oshirish, pensionerlarning ijtimoiy himoyasini ko'chaytirish, aholi turmush darajasini oshirish kabi bir qancha muammolar mavjud. Istiqlol yillarida pensiya ta'minoti masalalarida ijobjiy yutuqlarga erishilganiga qaramasdan, budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirish mexanizmlarini zamonaviy moliyaviy siyosat kontsepsiyalari asosida takomillashtirib borish ham jamg'arma mablag'laridan oqilona foydalanish va uni maqsadli sarflashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini ilmiy-amaliy tadqiq etishni taqozo etmoqda. Shuningdek, o'zini amalda to'la oqlagan taraqqiyot modeliga hamohang ravishda mamlakat pensiya ta'minoti tizimining barqarorligini yanada yaxshilash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi-olim Borisenko tadqiqotlari fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash, mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqi miqdoriga proportional tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash, bu daromadni kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalash kabilar pensiya tizimining asosiy maqsadi ekanligi, pensiya tizimining barqaror amal qilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikning garovi hisoblanishi va aksincha, pensiya ta'minotining nobarqarorligi kuchli ijtimoiy xavfni yuzaga keltirishi kabilar bayon qilingan (Борисенко, 2009).

Roik ta'kidlashicha, pensiyaning miqdori fuqarolar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari va olgan ish haqi miqdoriga bog'langan hamda yollanib ishlayotgan ishchilarining majburiy pensiya sug'urtasi bo'yicha yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari nazarda tutilgan (Роик, 2012).

Fedotov (2015) tadqiqotlarida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ijobjiy jihatlari jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy kafolatlarni yaratish, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlab turishning asosiy shartsharoitlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shu bilan birga, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining salbiy xususiyatlari ham mavjud. Jumladan, pensiya islohotlarini amalga oshirayotgan mamlakatlar jamg'arib boriladigan pensiya tizimini joriy qilish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash hamda ushbu tizimni aholining keng qatlamlari tomonidan qabul qilinishi bilan bog'liq muammolarga duchor bo'lishlari mumkin. Boz ustiga, "pensiya islohotlarini endigina boshlayotgan mamlakatlar uchun jamg'arib boriladigan pensiya tizimining taqsimlanuvchi pensiya tizimi bilan o'zaro munosabatlarida bu muammolar yanada o'tkir tus olishi mumkin".

Shuningdek, ushbu tizimda moliyaviy risk darajasi yuqori bo'ladi, ayniqsa, nobarqaror iqtisodiyot sharoitida bu nihoyatda jiddiy masala hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining kelagini nisbatan porloqdir. Bayon etilganlardan ko'rinish turibdiki, pensiya tizimidagi islohotlar ishlovchilarining mehnat faoliyatidan keyingi moliyaviy barqarorligining keskinlashuviga, ishlovchilarining pensiyaga chiqqandan keyingi moddiy ta'motiga, fuqarolarning qarilikda moddiy xavfsizligini ta'minlashga, shuningdek, fuqarolarni keksalik davrida kambag'allikdan himoyalashga, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining ijtimoiy adolatni ta'minlash, ijtimoiy kafolatlarni yaratish, siyosiy barqarorlikni vujudga keltirish va ta'minlashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ijtimoiy omillar mamlakat darajasida ijtimoiy va mehnat munosabatlarining rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Davlat rivojlanishining tarixiy va etnik-madaniy xususiyatlari, milliy mentalitet, jamiyatning dinga bo'lgan munosabati, davlat tomonidan

strategik va taktik maqsadlarni ko'zlagan holda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat, aholining ijtimoiy tarkibi, mehnat bozoridagi vaziyat, tarkib topgan ish haqi darajasi kabilarni ijtimoiy omillarga misol sifatida keltirishimiz mumkin. Iqtisodiy omillar davlatning moliyaviy imkoniyatlari, milliy pensiya tizimining asosi va uning faoliyat ko'rsatish samaradorligini belgilab beruvchi iqtisodiy shart-sharoitlarni belgilab beradi.

Iqtisodiy omillar sirasiga davlat moliyasining holati, jamiyat farovonligi darajasi, strategik maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda amalga oshiriluvchi iqtisodiy siyosat, davlatning iqtisodiyotdagi o'rni, mamlakatda ishlab chiqarishning rivojlanganlik darajasi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Demografik omillar ham yuqoridagi omillar singari pensiya tizimining sifat va miqdoriy xususiyatlarini aniqlashda muhim mo'ljal sifatida xizmat qiladi, chunonchi demografik omillar jamiyatning pensiya himoyasiga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettiradi. Demografik omillar o'z ichiga aholining yosh tarkibi, pensionerlarning jamiyatdagi ulushi, aholining o'sish sur'atlari, ish bilan band bo'lganlar va pensionerlarning nisbati kabi bir qator ko'rsatkichlarni qamrab oladi.

Pensiya tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish asnosida yaxlit tarzda pensiya tizimlarini tasniflashga harakat qilamiz. Pensiya tizimlarini tiplarga ajratish va tizimlashtirishning bir necha mezonlari mavjud. Bunda asosiy mezon sifatida davlatning o'rni muhim o'rinni egallaydi. Milliy pensiya tizimiga davlat va xususiy tashkil etuvchilar-ning ta'siridan kelib chiqqan holda, pensiya tizimlarini quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:

- davlat pensiya tizimi (davlat pensiya ta'minoti ustunlik qiladi);
- aralash tizim (davlat va xususiy pensiya ta'minotining o'ziga xos qorishmasi);
- xususiy pensiya ta'minoti (xususiy pensiya ta'minoti ustunlikka ega bo'ladi).

Pensiya tizimlarini tizimlashtirishning navbatdagi mezoni sifatida moliyalashtirish tamoyilidan foydalanish mumkin. Ushbu mezonga ko'ra pensiya tizimlarining quyidagi turlari (modellari) ajratiladi:

-taqsimlovchi (pensiya to'lovlari uchun joriy xaratjtar joriy, ko'pincha soliqli tushumlar hisobidan moliyalashtiriladi va to'lovlar budget yoki budgetdan tashqari fondlardan amalga oshiriladi);

-jamg'arib boriluvchi (maxsus jamg'armadagi ishtirokchining hisobvarag'ida ish haqidan ajratmalar shaklida kapital shakllanadi, bu kapital investitsiya qilinadi va investitsiyadan olingan daromad bilan birgalikda jamg'arilgan kapital pensiya shaklida to'lab beriladi);

-aralash (taqsimlash va jamg'arishga asoslangan pensiya tizimlaridan bir o'rinda foydalaniladi). Pensiya tizimining taqsimlashga asolangan modeli (pay-as-you-go system) avlodlar birdamligi tamoyiliga asoslanadi, shuning uchun uni ko'pincha solidar model sifatida ham talqin qilishadi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundaki, keksa avlod (pensionerlar) ning pensiya ta'minoti uchun javobgarlik yosh avlod (iqtisodiy faol aholi) zimmasiga yuklatiladi. Aksariyat holatlarda taqsimlash tizimi davlatga tegishli bo'ladi. Taqsimlash modelida, qoida tariqasida, mehnat stoji va ish haqi miqdoridan kelib chiqqan holda, kafolatlangan pensiya darajasi belgilanadi, (pensiya darajasi, odatda, past bo'ladi, chunki bunda asosiy e'tibor kambag'allikdan himoya qilishga qaratiladi). Ushbu modelning asosiy kamchiligi uning demografik o'zgarishlarga nisbatan zaifligida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy faol aholining (amalda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotganlar) ulushi qanchalik past va pensionerlarning aholi yosh tarkibida ulushi qancha yuqori bo'lsa, to'lovlarni moliyalashtirish budgetga shuncha katta yuk bo'lib tushadi.

Jamg'arib boriluvchi model (funded system) sug'urta tamoyiliga asoslanadi, pensiya to'lovlari ishtirokchilarining butun mehnat faoliyati davomidagi badallari hisobidan shakllantirilgan jamg'armadan amalga oshiriladi. Mazkur modeldan foydalanish asosida ish haqi o'rtacha va o'rtachadan yuqori bo'lgan xodimlar kelajakda o'zlarining o'rtacha ish haqiga teng bo'lgan miqdorda pensiya olishga umid qilishlari mumkin bo'ladi. Biroq, u milliy moliya bozorining yuqori darajada rivojlanishini nazarda tutadi, xususan, jamg'arib boriluvchi pensiya ta'minoti ko'p jihatdan zarur infratuzilmaning mavjudligi, bozor ko'lami, raqobat darajasi,

tartibga solish va nazorat sifati, yuqori bo'g'in rahbariyatining professionallik darajasi va xatarlarni boshqarish sifati kabilarga bog'liqdir. Bundan tashqari, mazkur tizimni taqsimlash tizimi bilan taqqoslash, u demografik omillarga nisbatan kamroq sezgir bo'lsada, ammo u investitsiya jarayonining samarasizligi va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar natijasida moliyaviy aktivlarning qadrsizlanish xatari bilan ifodalanuvchi iqtisodiy omillarga juda ham sezgir ekanligi borasida xulosa qilish imkonini beradi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi keyinchalik uni pensiya yoshiga yetganda tovar va xizmatlarni iste'mol qilishga almashtirish maqsadida mehnat faoliyati davomida ma'lum bir aktivlar portfelini shakllantirish imkoniyatini beradigan bo'lsa, asosan davlat tasarrufida bo'lgan taqsimlashga asoslangan pensiya tizimi pensionerga yosh avlod tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarning bir qismini o'zlashtirishiga va'da beradi.

Pensiya tizimiga oid tadqiqotlarning aksariyatida tizimdagи muammolarning bosh sababi sifatida belgilangan pensiya yoshi hamda aholining umr ko'rish davri o'rtasidagi tafovutning kengayib borishi ko'rsatiladi. Bu esa insonlarning umr ko'rish davrining uzayishi, tug'ilish ko'rsatkichlarining pasayishi, mehnatga layoqatli aholi migratsiyasi kabi omillar bilan bog'liqdir.

1-jadval ma'lumotlari ko'rish mumkinki, jahoning ba'zi mamlakatlarida o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 1991-2019 yillarda 3-6 yoshga ortgan hamda 2050 yilga borib 2019 yilga nisbatan 3-8 yoshgacha ortishi prognoz qilingan.

1-jadval

**Jahoning ba'zi mamlakatlarida demografik omillar o'zgarishlari va
ularning pensiya tizimiga ta'siri (Peng, 2008)**

| T/r | Mamlakatlar | 1991-yil | 2010-yil | 2019-yil | 2050-yil |
|------------|---|----------|----------|----------|----------|
| I | O'rtacha umr ko'rish davomiyligi (yil) | | | | |
| 1 | Germaniya | 75,98 | 80,4 | 81,1 | 85,26 |
| 2 | AQSh | 75,65 | 78,9 | 78,8 | 83,1 |
| 3 | Rossiya Federatsiyasi | 66,58 | 70,3 | 72,3 | 76,6 |
| 4 | Yaponiya | 79,42 | 83,3 | 84,4 | 87,9 |
| 5 | Saudiya Arabistoni | 70,11 | 74,4 | 74,9 | 79,3 |
| 6 | O'zbekiston | 66,27 | 70,2 | 71,5 | 74,7 |
| II | Fertillik ko'rsatkichi (birlikda) | | | | |
| 1 | Germaniya | 1,30 | 1,39 | 1,6 | 1,7 |
| 2 | AQSh | 2,03 | 1,9 | 1,8 | 1,8 |
| 3 | Rossiya Federatsiyasi | 1,55 | 1,66 | 1,8 | 1,8 |
| 4 | Yaponiya | 1,48 | 1,4 | 1,4 | 1,6 |
| 5 | Saudiya Arabistoni | 5,55 | 2,85 | 2,3 | 1,7 |
| 6 | O'zbekiston | 3,95 | 2,5 | 2,4 | 1,9 |
| III | 65 yoshdan oshganlarning jami aholidagi ulushi (%da) | | | | |
| 1 | Germaniya | 15,1 | 20,6 | 21,6 | 30,0 |
| 2 | AQSh | 12,7 | 13,0 | 16,2 | 22,4 |
| 3 | Rossiya Federatsiyasi | 10,6 | 13,1 | 15,1 | 22,9 |
| 4 | Yaponiya | 12,3 | 22,5 | 28,0 | 37,7 |
| 5 | Saudiya Arabistoni | 2,8 | 3,0 | 3,4 | 17,2 |
| 6 | O'zbekiston | 4,2 | 4,5 | 4,6 | 12,2 |

BMT hisob-kitoblariga ko'ra, jahon aholisi tarkibida 65 yoshdan kattalarning ulushi 1990 yildagi 6 foizdan 2019 yilda 9 foizga ko'tarilgan, prognozlarga ko'ra bu ko'rsatkich 2050 yilga borib 16 foizga yetadi. Juhon miqyosida o'rtacha umr ko'rish davomiyligi erkaklarda 69,9 va ayollarda 74,7 yoshga yetdi. Fertillik darajasi aksincha qisqarib borishi kuzatilmoxda, xususan, jahonda 1990 yilda 3,0 ni, 2019 yilda 2,5 ni tashkil etgani holda 2050 yilga borib 2,2 ga tushishi prognoz qilingan. Barcha xalqaro tashkilotlarning hisob-kitoblarida umr ko'rish davomiyligi

shiddat bilan uzayib borayotganligi va buning davom etishi, fertillik darajasining esa aksincha pasayib borayotganligi qayd etilgan (Beknazarov, 2023).

Fertillik ko'rsatkichi 1991-2019 yillarda Germaniya va Rossiya mamlakatlarda +0,3 ga ortgan bo'lsa, boshqa mamlakatlarda muntazam kamayib borgan. Biroq 2050 yilga borib aksariyat mamlakatlarda bu ko'rsatkich deyarli tenglashishi prognoz qilingan. Jami aholi tarkibida 65 yoshdan oshgan aholi salmog'i 2050 yilgacha oshib borishi hamda 2019 yilga nisbatan Germaniyada 9,4 foizli bandga, O'zbekistonda 7,6 foizli bandga ortishi prognoz qilingan. Bunday demografik o'zgarishlar pensiya tizimini ham institutsional, ham parametrik jihatdan isloh etish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda ijtimoiy ta'minotga muhtojlikni belgilovchi bir qancha mezonlar mavjud. Bu mezonlar mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda joriy etilgan. Xususan, pensiya olish huquqi uchun belgilangan asosiy mezonlar: pensiya yoshi yoki mehnat qilish layoqatini yo'qotganligi, belgilangan mehnat stoji yoki pensiya sug'urtasida ishtirok etganligi kabilardir. Lekin, qonunchilikda mehnat stajiga ega bo'limgan yohud pensiya sug'urtasida ishtirok etmagan muhtoj fuqarolar ham qariganda, mehnat qilish layoqatini yo'qotganda, boquvchisini yo'qotgan hollarda davlat tomonidan ijtimoiy ta'minlanishi mumkinligi belgilangan, bu esa qonunchilikda «ijtimoiy nafaqa», «ijtimoiy yordam» yoki «ijtimoiy pensiya» kabi nomlar bilan yuritiladi, faqat bunday to'lovlar qat'iy belgilangan miqdorlarda hamda o'ta muhtoj bo'lganlarga beriladi.

Pensiya ta'minoti tizimidagi asosiy muammolardan biri mehnatga layoqatli aholi qatlamining pensiya sug'urtasi tizimida ishtirok etishi va ularning ijtimoiy ta'minot tizimiga qamrab olinishi masalasidir, ya'ni «qamrov darajasi»dir. «Qamrov darajasi» mamlakat jami aholisining qancha qismi hech bo'limganda bitta ijtimoiy ta'minot turi bilan qamrab olinganligini hamda ular keksayganda, mehnatga layoqatsizlik yuzaga kelganida, ishsiz qolganida va boshqa hollarda turmush kechirishlari uchun hukumat tomonidan kafolatlangan to'lovlarini olishlarini anglatadi.

2-jadval

Milliy pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlari (Rustamov, 2018)

| Nº | Ko'rsatkichlar | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil |
|----|---|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| 1. | Jami aholi, mln. kishi | 31575,3 | 32120,5 | 32656,7 | 33255,5 | 33905,2 | 34558,9 | 35271,3 |
| 2. | Iqtisodiy faol aholi, mln. kishi | 14022,4 | 14357,3 | 14641,7 | 14876,4 | 14797,4 | 14980,7 | 15139,1 |
| 3. | Iqtisodiyotda bandlar, mln. kishi | 13298,4 | 13520,3 | 13273,1 | 13541,1 | 13236,4 | 13538,9 | 13835,8 |
| 4. | Pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar, ming kishi | 3324,2 | 3488,9 | 3690,3 | 3878,4 | 4029,3 | 4056,8 | 4346,3 |
| 5. | 55 yoshdan oshgan ayollar, ming kishi | 1866,3 | 1972,6 | 2077,4 | 2184,8 | 2293,1 | 2393,1 | 2491,3 |
| 6. | 60 yoshdan oshgan erkaklar, ming kishi | 982,8 | 1041,4 | 1104,4 | 1181,1 | 1259,9 | 1331,5 | 1414,4 |
| 7. | O'rtacha oylik ish haqi miqdori, ming so'mda | 1293,8 | 1453,2 | 1822,7 | 2324,6 | 2673,3 | 3214,8 | 3892,4 |
| 8. | Tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdori, ming so'mda | 494,2 | 556,8 | 640,5 | 733,2 | 848,5 | 924,7 | 1045,3 |
| 9. | O'rtacha umr ko'rish davomiyligi, yilda (yosh) | 73,8 | 73,7 | 74,6 | 75,1 | 73,4 | 73,8 | 73,9 |

2016-2022 yillarda O'zbekistonning pensiya ta'minoti tizimida ijobiy o'zgarishlar (pensiyalarning naqd shaklda berilishi, ishlovchi pensionerlarga pensiyalarning 100 foiz miqdorida to'lanishi, o'zini-o'zi band qilgan fuqarolar tomonidan ijtimoiy sug'urta badali to'lash mexanizmining yaratilganligi, pensiyani hisoblash tartibining takomillashtirilishi, tizimga

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining faol joriy qilinishi kabilar) amalga oshirildi. Biroq, «avlodlar birdamligi» tamoyiliga asoslangan milliy pensiya tizimi demografik va ijtimoiy omillarga uzviy bog'langanligi sababli ayrim muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, 2022 yilda jami aholi tarkibida pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar ulushi 13,2 foizni tashkil qilib, 2016 yilga nisbatan 1,8 foizli bandga oshgan. 2016-2022 yillarda Iqtisodiyottda bandlar soni 5,6 foizga o'sgan bir paytda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni 35,6 foizga oshgan. Xuddi shu davrda 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar soni muntazam o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, mos ravishda 33,5 foizga va 43,9 foizga teng bo'lgan.

Tahlil qilinayotgan davr mobaynida barcha omillarning ta'siri ostida tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdori 2,1 martaga o'sgan bir sharoitda o'rtacha oylik ish haqi 3,0 martaga o'sgan, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining o'sish sur'ati tayinlangan o'rtacha oylik pensiya miqdorining o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan. Yuqorida qayd etilgan barcha holatlar pensiya ta'minoti tizimida istiqbolga qaratilgan samarali islohotlar yo'nalishlarini tadqiq qilish zaruriyatini yanada oshiradi hamda avlodlar birdamligiga asoslangan pensiya ta'minotini isloh qilish, pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan zarur choralar ko'riliшини taqozo etadi.

3-jadval

2019-2023 yillarda Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ko'rsatkichlari, mlrd.so'mda¹

| Nº | Ko'rsatkichlar | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023 y. |
|----------------------------|--|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Jami mablag'lar | | 31 312,6 | 34 779,1 | 40 284,5 | 47 951,3 | 55 863,6 |
| Davr boshiga qoldiq | | 6 973,6 | 5 069,8 | 2 971,3 | 3 679,2 | 3 023,6 |
| I. | Daromadlar, jami | 24 339,0 | 29 709,3 | 37 313,2 | 44 272,1 | 52 840,0 |
| 1. | Soliq tushumlari | 24 029,0 | 20 416,1 | 26 488,4 | 33 139,5 | 37 810,0 |
| 1.1. | Ijtimoiy soliq | 20 722,1 | 19 841,4 | 25 642,9 | 32 338,8 | 37 000,0 |
| 1.2. | Sug'urta badallari | 514,8 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| 1.3. | Mahsulot (xizmat) realizatsiyasi hajmidan majburiy ajratmalar | 898,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| 1.4. | Boshqa daromadlar | 1 894,1 | 574,7 | 845,5 | 800,8 | 810,0 |
| 1.4.1. | Yagona soliq to'lovi | 1 166,6 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| 1.4.2. | Yuridiq shaxs tashkil etmagan holda yakka tartibdagi tadbirkorlarning sug'urta badallari | 585,1 | 327,8 | 537,0 | 426,2 | 453,0 |
| 1.4.3. | Qonuning 12,14,15 moddalari bo'yicha tushumlar | 122,9 | 185,9 | 205,4 | 280,6 | 281,1 |
| 1.4.4. | Boshqa tushumlar | 19,4 | 61,0 | 103,1 | 93,9 | 75,9 |
| 2. | Soliqdan tashqari tushumlar | 310,0 | 176,2 | 80,5 | 40,6 | 30,0 |
| II. | Jami xarajatlar | 26 242,8 | 31 807,8 | 36 605,3 | 44 927,6 | 53 518,0 |
| 3.1. | Pensiya va pensionerlarga boshqa harajatalar | 26 202,8 | 31 758,6 | 36 603,8 | 44 925,6 | 53 515,0 |
| 3.4. | Boshqa xarajatlar | 39,9 | 49,2 | 1,6 | 2,1 | 3,0 |
| 4. | Davlat budgetidan transfertlar | 0,0 | 9 117,0 | 10 744,2 | 11 092,0 | 15 000,0 |
| Davr oxiriga qoldiq | | 5 069,8 | 2 971,3 | 3 679,2 | 3 023,6 | 2 345,6 |

Yuqoridagi 3-jadvaldan ko'rindaniki, 2019 yilda Pensiya jamg'armasining o'ziga tegishli daromadlari xarajatlarini moliyalashtirish uchun yetarli bo'lgan hamda davr oxiriga 5 trln.

¹ www.pfru.uz

so'mdan ortiq mablag' qolgan. O'zbekistondagi soliq siyosatidagi islohotlar natijasida Pensiya jamg'armasining asosiy tushumlarini shakllantirib beruvchi ishlovchilarning majburiy sug'urta badallari, mahsulot (xizmat) realizatsiyasi hajmidan majburiy ajratmalarining bekor qilinishi, yagona soliq to'lovidan ajratmaning berilmasligi natijasida 2020 yildan boshlab Pensiya jamg'armasi daromadlarining keskin kamayishi yuzaga keldi hamda bu yetishmovchilik bugungi kunga qadar davlat budgeti transfertlari hisobidan qoplab turilibdi.

2023 yilda ham Pensiya jamg'armasiga davlat budgetidan 15 trln. so'm transfert ajratilishi belgilangan bo'lib, bu Pensiya jamg'armasi xarajatlarining 28 foizini tashkil qiladi. Budget transfertlari hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, xususan 2020 yilda 11,9 trln. so'm transfert ajratilgan bo'lsa, 2023 yilda 15 trln. so'm transfert ajratilishi belgilangan. So'nggi 5 yilda Pensiya jamg'armasining o'z daromadlari o'sishi atigi 55 foizni, xarajatlari o'sishi 104 foizni tashkil etgan hamda bu farq yildan yilga ortib borgan. Bunday holat Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqaror emasligini va davlat budgetiga bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu holatni bartaraf etish maqsadida, kelgusi yillarda Pensiya jamg'armasining daromadlarini oshirish hamda imkon qadar uning davlat budgetiga qaramligini kamaytirish chora-tadbirlari amalgalash oshirilishi zarur.

Xulosa va takliflar.

-fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimida rag'batlantiruvchi xarakterdagi mexanizmlarni o'rganish, fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimida uzoq muddatli va uzlusiz ishtirokini rag'batlantirish;

-mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog'liq holda pensiya miqdorlarini oshirish (talab etilgan me'yordan yuqori darajada), mehnat staji davomiyligini rag'batlantirish "xufyona iqtisodiyotdan chiqish", mehnat migrantlari va norasmiy sektorni ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb qilish yo'li bilan pensiya badallari to'lovchilar sonini tubdan kengaytirish bo'yicha takliflarni qayta ishslash va asoslash, to'lanayotgan pensiya badallarining shaffofligini ta'minlash;

-fuqarolarning ijtimoiy sug'urta (pensiya) tizimidagi ixtiyoriy ishtiroki mexanizmini o'rganish: – fuqarolarning ijtimoiy (pensiya) sug'urta tizimida ixtiyoriy ravishda ishtirok etishining shart-sharoitlari bilan bog'liq masalalarni kompleks o'rganish, fuqarolarga uchinchi shaxslar uchun ixtiyoriy asosda sug'urta badallari to'lash huquqini berish.

-ishlovchi er (xotin)ning mehnatga haq to'lash ko'rinishidagi daromadlari hisobidan ishlamayotgan turmush o'rtog'i uchun ixtiyoriy ravishda Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lash huquqini taklif etish. Shu jumladan, pensiya yoshiga etgan, ammo zarur ish stajiga ega bo'lмаган fuqarolarga, davlat pensiyalarini hisoblashda etishmayotgan stajining xar bir oy uchun Pensiya jamg'armasiga bir martalik sug'urta badallarini to'lash huquqini taklif etish. Er (xotin) ishlamayotgan turmush o'rtog'i uchun Pensiya jamg'armasiga ixtiyoriy sug'urta badallari to'lash tizimi dunyoning ko'plab davlatlarida mavjud. Misol uchun, Yaponiyada bu tizim majburiy xarakterga ega, bunday tizim Shvetsiya va Buyuk Britaniyada ham mavjud;

-avlodlarning moliyaviy ishtiroki ekvivalentligi va pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash shart-sharoitlarini o'rganish: – yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal mehnat staji davomiyligining shart-sharoitlarini o'rganish (Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yordi to'g'risida"gi 102-sonli Konventsiyasida yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etilgan eng kam staj 15 yil qilib belgilangan. Dunyoning ko'plab davlatlari, jumladan, MDH mamlakatlarida talab etilgan eng kam ish stagi 10-15 yilga etkazilgan), ilg'or xorij tajribasini, shu jumladan, MDH mamlakatlarini tajribalarini o'rganish asosida hamda asoslangan hisob-kitoblarga tayangan holda pensiya yoshini bosqichma-bosqich oshirib boorish;

-xalq bankidagi amaldagi majburiy pensiya jamg'arma hisobvaraqlari tizimini ixtiyoriy, moslashuvchan va boshqa banklar uchun ochiq shaklga o'tkazilishini ta'minlash, yirik ish beruvchilarga kasbiy pensiya ta'minoti tizimini joriy etishga ruxsat berish, ularni moliya

institutlari bilan hamkorlik uchun bog'lash, o'zini o'zi band qilganlar tomonidan davlat pensiya jamg'armasiga kiritiladigan badallar miqdorini bir martalik qat'iy belgilangan miqdor o'rniغا daromadlariga bog'liq qilib belgilash. Ularga oz miqdorda badal kiritishga ruxsat berish;

-har bir pensiya uchun ma'muriy va operatsion xarajatlarni kamaytirish uchun davlat pensiya jamg'armasi boshqaruvini takomillashtirish. Shaffoflikni oshirish, pensiyaning aniq mezonlarini belgilash va tizimni yanada avtomatlashtirish xarajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi, rasmiy bandlik darajasini, shu jumladan, xotin-qizlar o'rtasida oshirish, bu pensiya ta'minoti tizimiga badallar bazasini va aholini qamrovi darajasini oshirish imkonini beradi;

Adabiyotlar/Literature/Reference:

Beknazarov Z.E. (2023) O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish yo'lislari. Monografiya. Iqtisod-moliya.

Jun Peng (2008) State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 45.

Natalia Grishchenko (2016) Pensions after pension reforms: A comparative analysis of Belarus, Kazakhstan, and Russia. 1st International Conference on Applied Economics and Business, ICAEB 2015. Procedia Economics and Finance 36, 3–9.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huruzigadi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi rasmiy sayti www.pfru.uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz

Rustamov D.R. (2018) Pensiya jamg'armasini moliyaviy barqarorligini oshirish masalalari. Monografiya. Iqtisod-moliya.

Борисенко Н.Ю. (2009) Пенсионное обеспечение. Учебник. – М.: «Дашков и К0», – С. 8.